

VENGRIYA TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV YONDASHUV VA UNING SAMARADORLIGI

Xoliqov Firo'z Nuraliyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Pedagogika va psixologiya"

kafedra stajyor-o'qituvchisi

UDK: 37:376(439)

<https://orcid.org/0009-0008-1873-106X>

Tel: +998 90 052 81 87

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 02.03.2026

Revised: 03.03.2026

Accepted: 04.03.2026

KALIT SO'ZLAR:

*inklyuziv ta'lim,
maxsus ta'lim
ehtiyotlari (SEN),
integratsiya, Vengriya
ta'lim tizimi,
umumta'lim maktablari,
maxsus pedagogika,
ehtiyotga asoslangan
ta'lim, ta'lim siyosati*

Ushbu maqolada Vengriyada inklyuziv ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning umumta'lim maktablarida ta'lim olish huquqini tartibga soluvchi huquqiy asoslar, institutsional mexanizmlar hamda pedagogik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, 1993–2011-yillar oralig'ida qabul qilingan ta'limga oid qonunlarning inklyuziv amaliyotga ta'siri, tashxisga asoslangan va ehtiyojga asoslangan ta'lim modellari o'rtasidagi farqlar yoritiladi. Maqolada inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar, xususan terminologik noaniqliklar, moliyalashtirish mexanizmlari va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Vengriya tajribasi asosida inklyuziv ta'limni takomillashtirish va uni boshqa ta'lim tizimlariga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimlarida inklyuziv ta'lim barcha bolalar, jumladan maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarning teng huquqli va sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim nogironligi yoki rivojlanishida muayyan cheklavlari mavjud bo'lgan bolalarni alohida ta'lim muassasalarida ajratib o'qitishdan voz kechib, ularni umumta'lim muhitiga integratsiyalashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va inson huquqlari bilan bog'liq muhim masala sifatida ham e'tirof etilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni joriy etish murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u mustahkam huquqiy asos, institutsional qo'llab-quvvatlash, moslashuvchan o'quv dasturlari hamda o'qituvchilarning yetarli kasbiy tayyorgarligini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, Yevropa mamlakatlari tajribasi, xususan Vengriyada inklyuziv ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi ilmiy jihatdan katta qiziqish uyg'otadi. Vengriya misolida inklyuziv ta'limning huquqiy, tashkiliy va pedagogik mexanizmlarini tahlil qilish ushbu sohada samarali yechimlarni aniqlash imkonini beradi.

Vengriyada maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning umumta'lim maktablarida ta'lim olish huquqi 1993-yildan boshlab qonun bilan kafolatlangan bo'lsa-da, inklyuziv ta'limning amaliyotga to'liq tatbiq etilishi ijtimoiy munosabatlar, tashxis tizimidagi noaniqliklar hamda pedagog kadrlarning tayyorgarligi bilan bog'liq muammolarga duch kelgan. Ayniqsa, tashxisga asoslangan ta'lim modeli va ehtiyojga asoslangan yondashuv o'rtasidagi ziddiyatlar inklyuziv ta'limning samaradorligiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi Vengriyada inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, uning huquqiy va institutsional asoslarini yoritish hamda ushbu tajriba asosida inklyuziv ta'limni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayonida bo'lgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya

Tadqiqotda tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Vengriyaning inklyuziv ta'lim sari "sayohati" 1980-yillarning oxirida, siyosiy tuzumning o'zgarishi, sotsializmdan demokratiyaga o'tish hamda demokratlashtirish va ta'lim tizimini isloh qilishdan keyin boshlangan. Mamlakatda o'quvchilarning umumta'lim (asosiy) maktablarda tahsil olish huquqi 1993-yildan buyon qonun bilan mustahkamlangan. Biroq

jamiyatning, jumladan o'qituvchilarning maxsus ta'lim ehtiyojlari (special education needs, SEN) bo'lgan o'quvchilarga nisbatan bag'rikengligi va inklyuziv yondashuvi juda sekin rivojlanib kelmoqda. Shu o'rinda alohida qayd qilish kerakki, SENlarning ildizi Vengriyada Vats degan shaharchada kar o'quvchilar uchun birinchi maxsus ta'lim muassasasiga borib taqaladi. 19-asr davomida maxsus ta'lim muassasalarining milliy tarmog'i asta-sekin rivojlanib bordi.¹ Hozirgi kunga kelib esa bolaning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan zamonaviy qo'llab-quvvatlash tizimi shakllantirilgan.

Mavjud normativ-huquqiy hujjatlar yetarli darajada aniqlashtirilmagan bo'lsa-da, maxsus ehtiyojli o'quvchilar quyidagi ta'lim shakllarida o'qitilishi mumkin:

- inklyuziv umumta'lim sinflarida;
- umumta'lim maktabidagi maxsus sinflarda;
- yoki maxsus maktablarda.

Vengriyada psixolog, nevrolog va maxsus pedagoglardan iborat mutaxassislar guruhi tavsiyalariga asosan o'quvchi muayyan ta'lim muassasasiga joylashtiriladi. Mutaxassislar qo'mitasi rasmiy nomi "O'rganish qobiliyatlarini baholash bo'yicha Ekspert va Reabilitatsiya Qo'mitasi" („Tanulási Képességet Vizsgáló Szakértői és Rehabilitációs Bizottság”, TKVSZRB,) oila sharoiti, maktab imkoniyatlari hamda hududiy xususiyatlardan xabardor bo'lgan holda qaror qabul qiladi. 2003-yilda Ta'lim to'g'risidagi 1993 yilda qabul qilingan qonun o'zgartirilganidan so'ng, maxsus maktablar va sinflarga joylashtirilgan SEN li bolalar soni sezilarli darajada kamayib bormoqda.

Mazkur qonun asosida Vengriyadagi ko'plab maxsus maktablar o'z faoliyat yo'nalishini o'zgartirib, umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi Yagona Maxsus Pedagogik Metodik Markazlar (EGYMI) ga aylantirildi. Shunga qaramay, Vengriyada mavjud tashxisga asoslangan ta'lim modelini zamonaviy, ehtiyojga asoslangan model bilan almashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

2007-yilgi qonun bilan SEN ikki toifaga bo'lindi: "SEN-a" va "SEN-b". Bu mamlakatda maxsus ehtiyojli o'quvchilar soni ortishi fonida yuzb berdi. 2021-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, Vengriyada 83 472 nafar maxsus ta'lim ehtiyojlari (SEN) bo'lgan bola va o'quvchi rasmiy ta'lim muassasalarida ro'yxatdan o'tgan. Shulardan 55 597 nafari umumta'lim maktablarida, ya'ni inklyuziv muhitda tahsil olgan. Bu ko'rsatkich 2010-yildagi 57% dan 2021-yilgacha 67% ga oshgan. ² "SEN-a" guruhi biologik (organik) sabablar bilan bog'liq maxsus

¹ https://www.elte.hu/en/special_education?m=17

² <https://easpd.eu/publications-detail/children-with-disabilities-in-the-child-guarantee/>

ehtiyojlarni bildirsa, “SEN-b” guruhidagi muammolar bunday sabablar bilan izohlanmaydi. Amaliyotda ayrim maktablar ko‘proq moliyaviy yordam olish maqsadida o‘quvchilarni ushbu toifalarga ajratishni keng qo‘llay boshladi (Csépe, 2008).

Maxsus ta‘lim ehtiyojlariga oid atamalarda ham muayyan chalkashliklar mavjud. Ayniqsa, o‘rganishdagi qiyinchiliklar bilan yengil darajadagi aqliy zaiflik o‘rtasidagi farqlash muammoli bo‘lgan. Avvalroq to‘rt xil tushuncha qo‘llanilgan: o‘rganishdagi qiyinchiliklar, o‘rganish buzilishlari, o‘rganish nogironligi va aqliy zaiflik (Mesterházi, 1998). 2003-yildagi Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunga (LXXIX) ko‘ra, quyidagi toifalar belgilandi:

- o‘rganish va xulq-atvor muammolari;
- doimiy va og‘ir o‘rganish qiyinchiliklari (disleksiya, disgrafiya, giperfaollik);
- yengil va o‘rta darajadagi aqliy zaiflik.

Terminologiyadagi noaniqliklar fonida ota-onalarga bolalarini bolalar bog‘chalariga joylashtirish bo‘yicha maslahat va moliyaviy yordam ko‘rsatildi.

Bolalar bog‘chasi subsidiyasi: 2009-yil yanvaridan boshlab ijtimoiy jihatdan nochor oilalardagi 3–4 yoshli bolalar muntazam ravishda bog‘chaga qatnasa, yiliga ikki marta moddiy yordam berila boshlandi.

Bog‘cha o‘rinlarini kengaytirish: Hududiy Operatsion Dastur doirasida bog‘chalardagi o‘rinlar soni oshirildi (Milliy resurslar vazirligi, 2011:6).

1980-yillardan boshlab bolalarni boshlang‘ich maktabdan oldingi oxirgi yilda bog‘chaga qatnash majburiy etib belgilangan edi. 2011-yilda qabul qilingan yangi Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun (CXC. 20.12.2011) esa bolalarning 3 yoshdan boshlab bog‘chaga borishini majburiy qilib qo‘ydi. (Xalq ta‘limi to‘g‘risidagi qonun № CXC. 20.12.2011). Erta yoshdagi bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar bu bosqichda inklyuziya haqida kam gapirishadi, chunki bu yoshda bolalarning rivojlanishidagi farqlar juda katta bo‘lib, psixologik buzilishlarni aniq tashxislash mushkul.

Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni inklyuziv tarzda o‘qitish g‘oyasi Vengriyada 1989-yildagi siyosiy o‘zgarishlardan keyingina paydo bo‘ldi (Csépe, 2008). 1980-yillarning boshlarida ayrim tajriba maktablari mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, ularning natijalari keng tarqalmadi. Dastlabki qonunlar integratsiyaga ruxsat bergan, biroq o‘qituvchilar bu borada yetarli tayyorgarlik va tajribaga ega emas edilar. Shu sababli ko‘plab pedagoglar bunday o‘quvchilarni umumta‘lim sinflariga qo‘shishga qarshi bo‘lganlar. Natijada, Yevropada inklyuziv ta‘lim rivojlanayotgan bir paytda, Vengriyada segregatsiyalashgan ta‘lim tizimi saqlanib qoldi.

So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar nafaqat integratsiya imkoniyatlarini kengaytirdi, balki umumta'lim maktablariga aniq majburiyatlar ham yukladi. 2004-yildan kuchga kirgan Teng muomala va teng imkoniyatlar to'g'risidagi qonun maktablarda kamsitishni taqiqladi. Shu asosda, 2003-yildan boshlab ijtimoiy jihatdan nochor va lo'lilar (roma) orasida maktabni tark etishni kamaytirish maqsadida integratsiyalashgan ta'lim dasturi joriy etildi.

2003-yildan buyon o'rganish qiyinchiliklari yoki yengil aqliy zaifligi bo'lgan o'quvchilar maxsus maktablarga majburiy tarzda yuborilmaydi. Maxsus pedagoglar tavsiyasiga ko'ra, bunday bolalar odatda umumta'lim sinflarida o'qitiladi.

Bu jarayonda maktablar ikki tomonlama vazifani bajaradi: bir tomondan, o'zgartirish mumkin bo'lgan qobiliyatlarni o'z vaqtida rivojlantirish, ikkinchi tomondan esa o'zgartirib bo'lmaydigan xususiyatlar bilan ishlash yo'llarini topish (Gáspár, 2003).

Inklyuziv ta'lim mohiyatini aniq va yagona ta'rif bilan belgilash hali ham muammo bo'lib qolmoqda. Vengriyada inklyuziv ta'lim nimani anglatmasligi aniq, biroq u nimani anglatishini to'liq anglab yetilmagan. Shu bois, Vengriyada nazariy va amaliy olimlar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlari zarur.

Ba'zi boshlang'ich maktablarda hamkorlikda o'qitish (co-teaching) modellari sinovdan o'tkazilgan bo'lsa, boshqalarida SENli o'quvchilar uchun maxsus pedagoglar tomonidan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etilgan. O'rganish qiyinchiligi bo'lgan o'quvchi kamida 15% qo'shimcha o'quv vaqtiga ega bo'lishi shart. Agar maktab SENli o'quvchilarni umumiy sinflarda o'qitishni tanlasa, bu xizmatlarni kafolatlashga majbur.

Inklyuziv maktablar maxsus pedagoglar bilan doimiy hamkorlikda ishlashi, umumta'lim o'qituvchilari esa zarur paytda mutaxassisdan maslahat olish imkoniga ega bo'lishlari kerak. Bu ko'pchilik maktablar uchun yangi yondashuv bo'lgani sababli, ayrim o'qituvchilar uni mamnuniyat bilan qabul qilgan bo'lsalar-da, ma'lum shubhalar ham mavjud edi.

1980-yillardagi bilimga yo'naltirilgan Vengriya maktablari tubdan o'zgarishi lozim edi: faktlarga asoslangan ta'limdan asosiy kompetensiyalarga yo'naltirilgan ta'limga o'tish, frontal usullardan zamonaviy hamkorlikdagi o'qitish metodlariga o'tish, irqiy-pedagogik yondashuvni individual rivojlanish va kooperativ o'rganish bilan almashtirish zarur bo'ldi. Bundan tashqari, o'qituvchilar turli darajadagi o'quvchilardan iborat guruhlar bilan ishlashga tayyor bo'lishlari kerak edi.

Yangi chaqiriqlar bilan birga, venger o'qituvchilari o'quv rejaları tuzish, tadqiqotga asoslangan ta'lim, bilimlarni sifat jihatidan baholash va kompyuterga asoslangan o'qitish kabi yangi tizim va texnologiyalarni ham o'zlashtirishlariga to'g'ri keldi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Vengriyada inklyuziv ta'lim tizimining shakllanishi normativ-huquqiy asoslarning yaratilishi bilan boshlangan bo'lsa-da, uning barqaror va samarali ishlashi ko'plab omillarning o'zaro uyg'unligiga bog'liqdir. Inklyuziv ta'lim faqat maxsus ehtiyojli o'quvchilarni umumta'lim muassasalariga joylashtirish bilan cheklanmay, balki ta'lim mazmuni, pedagogik yondashuvlar va maktab ichidagi professional hamkorlikni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etuvchi murakkab tizim ekanligi aniqlanadi.

Vengriya tajribasi inklyuziv ta'limni joriy etishda tashxisga asoslangan yondashuvning muayyan cheklovlarga ega ekanini ko'rsatib berdi. Maxsus ta'lim ehtiyojlarini qat'iy toifalarga ajratish amaliyotda moliyalashtirish mexanizmlari bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirib, ayrim hollarda inklyuzivlik prinsipining mazmuniga zid natijalarga olib kelmoqda. Shu bois ehtiyojga asoslangan, moslashuvchan va individual rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim modeli inklyuziv ta'limning istiqbolli yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. EASPD yillik hisoboti. 2024. Vengriya. <https://easpd.eu/publications-detail/children-with-disabilities-in-the-child-guarantee/>
2. 1993 yilda qabul qilingan Xalq ta'limi to'g'risidagi Qonun. Act of Public Education No. 1993/LXXIX.
3. 2003 yilda qabul qilingan Xalq ta'limi to'g'risidagi Qonun . Act of Public Education No. 2003/LXI.
4. Csépe V. 2008. Maxsus ta'lim ehtiyojlarining hozirgi amaliyoti va kelajakdagi istiqbollari. 139-165 b. 'Current practice and the future agenda of special educational needs. (A különleges oktatást, nevelést és rehabilitációs célú fejlesztést igénylő (SNI) gyermekek ellátásának gyakorlata és a szükséges teendők). In: Fazekas K.; Küllő J. & Varga J. (Eds.) Green paper for the renewal of Hungarian compulsory education, (Zöld könyv a magyar közsoktatás megújításáért) Ecostat, Budapest. pp.139-165.
5. Kárpáti, A. 2008. "O'qituvchilar ta'limi va malakasi". Jurnal. 193-217 b. 'Teacher education and training' (Tanárképzés és továbbképzés). In: Fazekas K.; Küllő J. & Varga J. (Eds.) Green paper for the renewal of Hungarian compulsory education, (Zöld könyv a magyar közsoktatás megújításáért). Ecostat, Budapest. pp. 193-217.
6. Kamolovich, M. S., & Isakovich, O. R. F. (2023). Inklyuziv ta'limning shaxs shakllanishidagi ahamiyati. Science and innovation, 2(Special Issue 12), 277-279.